TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ATAMURATOVA GULRUX MUZAFAROVNA

KICHIK BIZNES TIZIMLARINI MONTE-KARLO USULI YORDAMIDA SINERGETIK MODELLASHTIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Termiz – 2026

UDK: 330.43:634.1(575.151)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic sciences

Atamuratova Gulrux Muzafarovna
Kichik biznes tizimlarini Monte-Karlo usuli yordamida sinergetik modellashtirish (Jizzax viloyati misolida).....3

Атамуратова Гулрух Музафаровна
Синергетическое моделирование систем малого бизнеса с использованием метода Монте-Карло (на примере Джизакской области).....29

Atamuratova Gulrux Muzafarovna
Synergetic modeling of small business systems using the Monte Carlo method (using the example of the Jizzakh region).....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....62

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ATAMURATOVA GULRUX MUZAFAROVNA

KICHIK BIZNES TIZIMLARINI MONTE-KARLO USULI YORDAMIDA SINERGETIK MODELLASHTIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida raqam bilan B2026.3.PhD/Iqt7285 ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tersu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdug‘aniyev Otabek Allajonovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mahmudov Nosir Mahmudovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
	Jo‘rayev Farrux Do‘stmirzayevich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.H.Toshqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.T.To‘lakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

O.Q.Xatamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda innovatsion faollikni rag‘batlantiruvchi muhim institut sifatida rivojlanib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 50-60 foizini hamda yangi ish o‘rinlarining 70 foizdan ortig‘ini shakllantiradi. Jahon Bankining MSME-EI bazasida 176 mamlakat bo‘yicha statistik ma’lumotlarning jamlangani ushbu sohaning global iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini tasdiqlaydi[1]. Biroq global iqtisodiy noaniqliklarning kuchayishi, tashqi bozorlardagi beqarorlik, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda institutsional muammolar kichik biznes tizimining barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Kichik biznes tizimining ichki dinamikasi, rivojlanish trayektoriyalari va risk omillarini chuqur iqtisodiy-statistik baholash zarurati ortib bormoqda. Kichik biznes tizimining murakkab va stoxastik xususiyatga egaligi an’anaviy modellashtirish usullari bilan bir qatorda sinergetik-ekonometrik modellar hamda Monte-Karlo simulyatsiyasi kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni talab etadi. Ushbu metodologiyalar tizimning barqarorlik darajasi, ehtimollik asosidagi rivojlanish trayektoriyalari va risk chegaralarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan kichik biznes tizimini sinergetik-ekonometrik modellashtirish va stoxastik prognozlash asosida kompleks baholash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Jahon ilmiy hamjamiyatida kichik biznes tizimini iqtisodiy-matematik modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlar asosan ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda. Birinchi yo‘nalish klassik ekonometrik yondashuvga asoslanib, unda chiziqli regressiya, panel ma’lumotlar va vaqtli qator modellaridan foydalanish orqali kichik biznes rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar baholanadi. Ikkinchi yo‘nalish sinergetik va nochiziqli dinamik yondashuvlarni qamrab olib, iqtisodiy tizimni ochiq, ko‘p komponentli hamda fazoviy o‘tishlarga ega murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu metodologik yondashuv iqtisodiy jarayonlardagi barqarorlik, bifurkatsiya va stoxastik tebranishlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Kichik biznes tizimida kuzatilayotgan murakkab va stoxastik jarayonlarni an’anaviy chiziqli ekonometrik modellar yordamida to‘liq izohlash imkoniyati cheklanganligi sababli, sinergetik-ekonometrik modellar hamda Monte-Karlo simulyatsiyasi kabi zamonaviy metodologik yondashuvlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes tizimini sinergetik-ekonometrik modellashtirish va Monte-Karlo simulyatsiyasi asosida stoxastik prognozlash mazkur sohani chuqur o‘rganishning ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

[1]T. Beck, A. Demirgüç-Kunt // Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint // Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30, №. 11. P. 2931-2943.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hamda hududiy tadbirkorlik faolligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan tadbirkorlik muhitini yaxshilash, biznes yuritishdagi institutsional to‘siqlarni qisqartirish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, investitsion muhitni takomillashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududlarda sanoat va xizmatlar faoliyatini kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-son Farmonida iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, xususiy sektor ulushini kengaytirish, hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi bandligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan[2]. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi kichik biznes tizimining rivojlanish jarayonlarini chuqur iqtisodiy-statistik baholash, uning dinamikasini prognozlash va barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy ekonometrik yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-sonli “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli “ Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-sonli “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes iqtisodiyotini modellashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari xorijlik olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, D.B.Audretsch, A.R.Thurik, M.Carree, M.Ayyagari, T.Beck, A.Demirgüç-Kunt, Z.J.Acs, H.Haken, W.B.Zhang, W.Weidlich, E.Ott kabi olimlar kichik va o‘rta tadbirkorlikning iqtisodiy o‘sish, bandlik darajasi va

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030”gi PF-158 sonli Farmoni.

innovatsion faollikka ta’sirini empirik yondashuvlar asosida baholaganlar[3]. Ularning tadqiqotlarida kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi institutsional roli, investitsion faollikni rag‘batlantirishdagi ahamiyati hamda hududiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillari keng yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan Г.Г.Малинецкий, А.Б.Потапов, Е.Г.Пугачёва, К.Н.Соловьенко, В.Р.Евстигнеев, Е.Н.Князева hamda С.П.Курдюмовlarning ilmiy ishlarida sinergetik iqtisodiyotning amaliy qo‘llanilishi, nochiziqli dinamik modellar, bifurkatsion jarayonlar va murakkab iqtisodiy tizimlarning evolyutsion rivojlanish masalalari chuqur tadqiq etilgan[4]. Mazkur tadqiqotlarda iqtisodiy tizimlarning barqarorligi, o‘z-o‘zini tashkil etish mexanizmlari hamda stoxastik tebranishlar sharoitidagi rivojlanish qonuniyatlari keng yoritilgan.

O‘zbekistonlik olimlardan S.S.Gulyamov, R.A.Alimov, B.Yu.Xodiyev, T.Sh.Shodiyev, B.B.Berkinov, F.M.Raxmatullayeva, M.E.Jo‘raxonov, B.A.Abdukarimovning ilmiy tadqiqotlarida respublikada ekonometrik modellashtirish, makroiqtisodiy prognozlash va iqtisodiy jarayonlarni statistik baholash masalalari keng yoritilgan[5]. Ushbu ishlarda iqtisodiy o‘sish omillari, hududiy rivojlanish tendensiyalari hamda iqtisodiy tizimlarni matematik modellashtirishning nazariy-uslubiy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda kichik biznes tizimining sinergetik qonuniyatlari, tartib parametrlarining o‘zaro bog‘liqligi, Monte-Karlo stoxastik simulyatsiyasini kichik tanlanmalarga moslashtirish, Lyapunov-stoxastik barqarorlik mezoni hamda stoxastik differensial tenglamalar tizimini empirik baholash metodologiyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shuningdek, klassik ARIMA yondashuvi tizimdagi bifurkatsion o‘tishlar va parametrlararo dinamik bog‘liqliklarni to‘liq aks ettirish

---

[3]D.B.Audretsch, A.R.Thurik // What is New about the New Economy: Sources of Growth in the Managed and Entrepreneurial Economies // Industrial and Corporate Change. 2001. Vol. 10, №.1. P. 267–315; M.Carree [et al.] // Small Business Economics. // 2002. Vol. 19, №. 3. P. 271–290; M.Ayyagari, T.Beck, A.Demirgüç-Kunt // Small and Medium Enterprises across the Globe // Small Business Economics. 2007. Vol. 29. P. 415–434; Z.J.Acs // The knowledge spillover theory of entrepreneurship // PhD dissertation: University of Milan, Italy, 2023 – 187 p; H.Haken // Synergetics: An Introduction - Nonequilibrium Phase Transitions and Self-Organization in Physics, Chemistry, and Biology. // Berlin; Heidelberg; New York: Springer-Verlag, 1983. P. 390; W.B.Zhang // Synergetic Economics: Time and Change in Nonlinear Economics. // Vol. 53. Berlin; Heidelberg: Springer-Verlag, 1991. P. 246; W.Weidlich // Sociodynamics: A Systematic Approach to Mathematical Modelling in the Social Sciences. // Amsterdam: Harwood Academic Publishers, 2000. P. 390; E.Ott // Chaos in Dynamical Systems. 2nd ed. // Cambridge: Cambridge University Press, 2002. P. 478.

[4]Г.Г.Малинецкий, А.Б.Потапов // Нелинейная динамика и хаос: Основные понятия. 2nd ed. // Москва: URSS; Либроком, 2011. стр. 240; Е.Г.Пугачёва, К.Н.Соловьенко // Самоорганизация социально-экономических систем. // Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2003. стр. 172; В.Р.Евстигнеев // Прогнозирование доходности на рынке акций. // Москва: Маросейка, 2009. стр. 192; Е.Н.Князева, С.П.Курдюмов // Основания синергетики:Синергетическое мировидение. 4th ed. // Москва: URSS; Либроком, 2018. стр. 256; Е.Г.Пугачёва, К.Н.Соловьенко // Самоорганизация социально-экономических систем. // Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2003. стр. 172; В.Р.Евстигнеев // Прогнозирование доходности на рынке акций. // Москва : Маросейка, 2009. стр. 192.

[5]С.С.Гулямов // Межотрасливые модели экономики. // Монография. –Т.: Наука и технология. 1999. Стр. 234; Р.А.Алимов // Методические проблемы построения системы национальных счетов. // Док. дисс. –Т.: ТГУ, 1993; B.Yu.Xodiyev, T.Sh.Shodiyev, B.B.Berkinov // Ekonometrika // Darslik. Toshkent 2018 yil. 15-105-betlar; F.M.Raxmatullayeva // Xorijiy investitsiyalar tavakkalchiligini pasaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. // Diss.: iqtisod fan nomzodi. –T.: 2009; M.E.Jo‘raxonov // Kichik biznesni barqaror rivojlantirishda ishlab chiqarish omillari samaradorliligini oshirish yo‘llari (Andijon viloyati misolida) // Monografiya. Andijon-2023; B.A.Abdukarimov // Ichki savdo iqtisodiyoti // Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2010. - 41-42 betlar.

imkonini bermaydi. Ushbu ilmiy bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida tadqiqotda ARIMA modeli qo‘shimcha validatsiya vositasi sifatida saqlangan holda, sinergetik diagnostika, Monte-Karlo simulyatsiyasi va stoxastik differensial tenglamalarga asoslangan kompleks ekonometrik apparat shakllantirildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jizzax viloyati kichik biznes tizimini sinergetik yondashuv va Monte-Karlo simulyatsiyasi asosida ekonometrik modellashtirish, uning tartib parametrlarini identifikatsiyalash, risk darajasi va stoxastik rivojlanish trayektoriyalarini baholash hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes tizimini sinergetik yondashuv va Monte-Karlo metodologiyasi asosida modellashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

Jizzax viloyati kichik biznes tizimining 2010 – 2025-yillardagi statistik-iqtisodiy holati va strukturaviy o‘zgarishlarini iqtisodiy-statistik usullar asosida baholash;

kichik biznes tizimining asosiy tartib parametrlarini asosiy komponentalar tahlili (PCA) yordamida identifikatsiya qilish hamda sinergetik stoxastik differensial tenglamalar modeli spetsifikatsiyasini ishlab chiqish;

Monte-Karlo stoxastik simulyatsiyasi asosida N = 10 000 takrorli modelni baholash, risk metrikalarini (VaR, CVaR, volatilitet) hisoblash va tizim barqarorligini sinergetik diagnostika usullari orqali aniqlash;

2026 – 2030-yillarga mo‘ljallangan ishonchlilik oralig‘iga asoslangan prognoz variantlarini ishlab chiqish va baholash;

kichik biznes tizimining rivojlanish darajasini kompleks baholovchi sakkiz komponentli sinergetik integral indeksni (SII) ishlab chiqish hamda uning amaliy qo‘llash mexanizmlarini taklif etish;

Jizzax viloyatida kichik biznes tizimini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib, Jizzax viloyati kichik biznes tizimining iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, savdo, xizmatlar, transport va tashqi iqtisodiy faoliyatdagi rivojlanish jarayonlari hamda ularning 2010 – 2025-yillardagi dinamik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti kichik biznes tizimining sinergetik xususiyatlari, jumladan tartib parametrlarini identifikatsiyalash, slaving munosabatlari va fazoviy o‘tish jarayonlari hamda ularni Monte-Karlo stoxastik simulyatsiyasi asosida ekonometrik modellashtirish, risk metrikalarini baholash va stoxastik prognozlash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy hamda tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik usullar, jumladan guruhlash, indeks, balans, tavsifiy statistika, korrelyatsion-regression tahlil va dinamik qatorlar usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda ekonometrik usullar sifatida OLS, ARIMA, VAR, ARDL modellari, Johansen kointegratsiya testi, Chow struktur uzilish testi, Granger sababiyat testi hamda Diebold-Mariano testi qo‘llanildi. Kichik biznes tizimining murakkab va stoxastik xususiyatlarini baholash maqsadida sinergetik-stoxastik yondashuvlardan, xususan stoxastik differensial tenglamalar, Euler-Maruyama sonli integratsiyasi, maksimal ehtimollik (MLE) usuli, Monte-Karlo simulyatsiyasi, Lyapunov eksponenti, Shannon entropiyasi, PCA, Sobol sensitivlik indekslari, bootstrap, VaR va CVaR risk metrikalaridan foydalanildi. Model parametrlarining adekvatligi va barqarorligini tekshirishda ADF, KPSS, Breusch-Pagan, Jarque-Bera, Ramsey RESET hamda AIC/BIC diagnostik mezonlari asosida baholash ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Jizzax viloyati kichik biznes tizimining sinergetik-ekonometrik modeli uchun YaIMdagi KB ulushi($\boldsymbol{\xi_1}$), sanoatdagi KB ulushi ($\boldsymbol{\xi_2}$) va xizmatlardagi KB ulushi ($\boldsymbol{\xi_3}$) asosiy tartib parametrlari sifatida bosh komponentalar usuli asosida ekonometrik identifikatsiya qilinib, ular asosida 3-o‘lchamli stoxastik differensial tenglamalar modeli taklif etilgan;

Kichik biznes tizimining rivojlanish parametrlarini stoxastik ekonometrik baholashda Monte-Karlo simulyatsiyasi kichik tanlanmaga (T=16) moslashtirilib, logistik transformatsiyali sonli integratsiya sxemasi asosida N=10 000 hamda N=50 000 virtual trayektoriyalar generatsiyasi orqali empirik ishonchlilik oraliqlari va VaR hamda CVaR risk metrikalarini hisoblash algoritmi takomillashtirilgan;

Jizzax viloyatida kichik biznes tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ekonometrik baholash maqsadida Herfindahl-Hirschman konsentratsiya indeksi, Shannon entropiyasi, variatsion koeffitsient, dinamik balans, qaytish tezligi, struktur barqarorlik, resurs samaradorligi va tizim moslashuvchanligi ko‘rsatkichlariga asoslangan sakkiz komponentli sinergetik integral indeks (SII) ishlab chiqilgan;

kichik biznes tizimining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari sinergetik-ekonometrik modellar va Monte-Karlo stoxastik simulyatsiyasi asosida baholanib, 2030-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jizzax viloyati kichik biznes tizimi uchun ikki o‘lchamli sinergetik stoxastik differensial tenglamalar modeli ishlab chiqilib, MLE usuli asosida baholandi hamda tizimning muvozanat qiymatlari, nazorat parametri, stoxastik volatiliteti va dinamik balansi aniqlangan;

logistik transformatsiyaga asoslangan Euler-Maruyama sxemasi yordamida takomillashtirilgan Monte-Karlo simulyatsiya algoritmi ishlab chiqilib, 10 000 – 50 000 takrorli virtual kuzatuvlar generatsiyasi hamda empirik ishonchlilik oraliqlari asosida risk metrikalarini hisoblash apparati shakllantirilgan;

Jizzax viloyatida kichik biznes tizimini rivojlantirish tendensiyalarining 2026 – 2030-yillarga mo‘ljallangan optimistik, realistik va pessimistik prognoz variantlari ishlab chiqilib, ular bo‘yicha VaR va CVaR risk chegaralari hisoblangan;

sakkiz komponentli sinergetik integral indeks (SII) kichik biznes tizimining yillik monitoring indikatori sifatida aprobatsiya qilinib, uning natijalarini davlat statistikasi tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan iqtisodiy-matematik, statistik va ekonometrik usullarning ilmiy asoslanganligi hamda klassik ekonometrik tamoyillarga muvofiqligi bilan ta’minlanadi. Baholangan modellar ADF, KPSS, Breusch-Pagan, Durbin-Watson, Jarque-Bera va Ramsey RESET diagnostik testlari orqali tekshirilib, olingan natijalar model parametrlarining statistik jihatdan barqaror va adekvat ekanligini tasdiqladi. Monte-Karlo simulyatsiyasi asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblarning ishonchliligi N = 10 000 takrorli stoxastik simulyatsiya hamda Gelman–Rubin konvergensiya mezoni ($\hat{R} < 1{,}1$) orqali asoslandi. Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar bazasi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Jizzax viloyati statistika boshqarmasi va xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik manbalari asosida shakllantirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan sinergetik-ekonometrik model va Monte-Karlo stoxastik simulyatsiyasi algoritmining takomillashtirilishi orqali iqtisodiy sinergetika nazariyasini hududiy iqtisodiy tizimlarga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan belgilanadi. Tadqiqotda qo‘llangan Lyapunov-stoxastik barqarorlik mezoni, risk metrikalari hamda sakkiz komponentli sinergetik integral indeks kichik biznes tizimining dinamik rivojlanishini baholashga xizmat qiluvchi iqtisodiy-matematik va statistik-tahliliy apparatni boyitadi. Ishlab chiqilgan ekonometrik modellar va stoxastik prognoz natijalaridan Jizzax viloyatida kichik biznes tizimini rivojlantirishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqishda, shuningdek kichik biznes barqarorligini oshirish, risklarni kamaytirish hamda hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligini kuchaytirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati respublika hududlarida, xususan Jizzax viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tizimining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirish hamda iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan sinergetik-ekonometrik modellar va stoxastik prognoz natijalaridan qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo va xizmatlar tarmoqlarida iqtisodiy-statistik baholash hamda prognozlash jarayonlarida, shuningdek hududiy rivojlanish dasturlari va ustuvor yo‘nalishlarni shakllantirishda mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiyot yo‘nalishlari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash jarayonida, xususan “Ekonometrika”, “Statistika” hamda “Raqamli iqtisodiyot” fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va metodik materiallar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes tizimini Monte-Karlo usuli va sinergetik yondashuv asosida ekonometrik modellashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Jizzax viloyati kichik biznes tizimining sinergetik-ekonometrik modeli uchun YaIMdagi KB ulushi($\boldsymbol{\xi_1}$), sanoatdagi KB ulushi ($\boldsymbol{\xi_2}$) va xizmatlardagi KB ulushi ($\boldsymbol{\xi_3}$) asosiy tartib parametrlari sifatida bosh komponentalar usuli asosida ekonometrik identifikatsiya qilinib, ular asosida 3-o‘lchamli stoxastik differensial tenglamalar modeli bo‘yicha taklifi Jizzax viloyat hokimining 2025-yil 13-yanvardagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-3-0-Q/25-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimligining 2026-yil 25-maydagi 07-129-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Jizzax viloyati kichik biznes tizimining asosiy tartib parametrlarini ekonometrik identifikatsiyalash hamda ularning stoxastik rivojlanish trayektoriyalarini baholash asosida hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash imkoniyati kengayib, kichik biznesning YaIM va tarmoqlar tarkibidagi ulushini barqaror oshirishga qaratilgan maqsadli boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga erishilgan.

Jizzax viloyatida kichik biznes tizimining rivojlanish parametrlarini stoxastik ekonometrik baholashda Monte-Karlo simulyatsiyasi kichik tanlanmaga (T=16) moslashtirilib, logistik transformatsiyali sonli integratsiya sxemasi asosida N=10 000 hamda N=50 000 virtual trayektoriyalar generatsiyasi orqali empirik ishonchlilik oraliqlari va VaR hamda CVaR risk metrikalarini hisoblash algoritmini takomillashtirish bo‘yicha taklifi Jizzax viloyat hokimining 2025-yil 13-yanvardagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-3-0-Q/25-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimligining 2026-yil 25-maydagi 07-129-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida Jizzax viloyati kichik biznes tizimining stoxastik rivojlanish trayektoriyalarini ehtimollik asosida baholash, risk chegaralarini oldindan aniqlash hamda YaIM va sanoatdagi kichik biznes ulushining barqarorlik darajasini Monte-Karlo simulyatsiyasi orqali prognozlash imkoniyati yaratilgan.

Jizzax viloyatida kichik biznes tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ekonometrik baholash maqsadida Herfindahl-Hirschman konsentratsiya indeksi, Shannon entropiyasi, variatsion koeffitsient, dinamik balans, qaytish tezligi, struktur barqarorlik, resurs samaradorligi va tizim moslashuvchanligi ko‘rsatkichlariga asoslangan sakkiz komponentli sinergetik integral indeks (SII) ishlab chiqish bo‘yicha berilgan taklifi Jizzax viloyat hokimining 2025-yil 13-yanvardagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 14-3-0-Q/25-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimligining 2026-yil 25-maydagi 07-129-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida Jizzax

viloyati kichik biznes tizimining iqtisodiy barqarorligi, tarmoqlararo muvozanati va rivojlanish darajasini kompleks ekonometrik baholash imkoniyati kengayib, hududiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda integral monitoring indikatoridan foydalanish mexanizmi shakllantirilgan.

Jizzax viloyatida kichik biznes tizimining asosiy rivojlanish koʻrsatkichlari sinergetik-ekonometrik modellar va Monte-Karlo stoxastik simulyatsiyasi asosida baholanib, 2030-yilgacha boʻlgan oʻrta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilganligi yuzasidan berilgan taklifi Jizzax viloyat hokimining 2025-yil 13-yanvardagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy oʻsish va aholi bandligini taʼminlashning yangi tizimini yoʻlga qoʻyish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va masʼuliyatini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 14-3-0-Q/25-son qarorini tayyorlashda foydalanilgan (Jizzax viloyati hokimligining 2026-yil 25-maydagi 07-129-sonli maʼlumotnomasi). Olingan stoxastik prognoz natijalari asosida Jizzax viloyati kichik biznes tizimining 2030-yilgacha boʻlgan asosiy rivojlanish koʻrsatkichlari hisoblab chiqilib, uning uzoq muddatli rivojlanish trayektoriyalari va barqarorlik tendensiyalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida maʼruza koʻrinishida bayon etilgan va maʼqullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan va ilovalardan iborat boʻlib, umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida oʻtkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Kichik biznes tizimlarini sinergetik yondashuv va Monte-Karlo usuli asosida modellashtirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida iqtisodiy tizimlarni sinergetik modellashtirishning nazariy asoslari va rivojlanish tendensiyalari, Monte-Karlo stoxastik simulyatsiya usulining metodologik asoslari va ekonometrikada qoʻllanilishi hamda kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish boʻyicha zamonaviy xorij tajribasi oʻrganilgan.

Dissertatsiya ishida kichik biznesning iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi bandligini kengaytirish, daromadlar manbalarini diversifikatsiya qilish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishdagi o‘rni tadqiq etildi. Kichik biznes tizimining rivojlanishini o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilib, uni modellashtirishning klassik ekonometrik, zamonaviy sinergetik va stoxastik yondashuvlari tahlil qilindi hamda tizimning ko‘p omilli, nochiziqli va ehtimollik xususiyatlarini baholash imkoniyatlari umumlashtirildi. Shuningdek, AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, innovatsion faollikni rag‘batlantirish va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rganildi. Ushbu tajribalar asosida kichik biznes rivojlanishini baholashda qo‘llaniladigan statistik, ekonometrik va stoxastik modellashtirish yondashuvlari tizimlashtirilib, ularning hududiy iqtisodiy tizimlardagi strukturaviy o‘zgarishlar, rivojlanish dinamikasi va barqarorlik holatlarini aniqlashdagi imkoniyatlari asoslandi.

Tadqiqot ishi doirasida Jizzax viloyati kichik biznes tizimining 24 ta asosiy ko‘rsatkichi tahlil qilinib, bosh komponentalar tahlili (PCA) natijasida tizimdagi umumiy variatsiyaning 87 foizi to‘rtta bosh komponent orqali izohlanishi aniqlandi. Natijalar asosida YaIMdagi kichik biznes ulushi (ξ_1), sanoatdagi kichik biznes ulushi (ξ_2) va xizmatlar sohasidagi kichik biznes ulushi (ξ_3) tizimning uchta asosiy tartib parametri sifatida identifikatsiya qilindi. Ushbu parametrlar kichik biznes tizimining makroiqtisodiy va tarmoq tarkibidagi dinamik holatini ifodalovchi yetakchi o‘zgaruvchilar sifatida qabul qilindi. Qolgan ko‘rsatkichlar esa tartib parametrlarining dinamikasiga funksional jihatdan bog‘liq bo‘lgan “bo‘ysunuvchi o‘zgaruvchilar” sifatida talqin qilindi. Tartib parametrlari va bo‘ysunuvchi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi sinergetik strukturaviy bog‘lanish 1-rasmda sxematik tarzda ifodalangan.

1-rasmda kichik biznes tizimining sinergetik arxitekturasi ifodalangan bo‘lib, uning umumiy dinamikasi kam sonli tartib parametrlari orqali tavsiflanishi asoslangan. Ushbu yondashuv ko‘p o‘zgaruvchili murakkab iqtisodiy tizimning umumiy holati va rivojlanish trayektoriyasini cheklangan sondagi asosiy parametrlar orqali modellashtirish imkonini beradi hamda stoxastik baholash, prognozlash va Monte-Karlo simulyatsiyasini amalga oshirish uchun metodologik asos yaratadi.

O‘tkazilgan nazariy-uslubiy tahlillar mamlakatimizda iqtisodiy tizimlarni sinergetik yondashuv asosida tadqiq etish bo‘yicha mavjud ishlarda tartib parametrlari, tizim o‘zgaruvchilarining ierarxik bog‘liqligi va stoxastik simulyatsiyani yagona ekonometrik apparat doirasida birlashtirish masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Shu asosda tadqiqotda Jizzax viloyati kichik biznes tizimining murakkab va stoxastik dinamikasini sinergetik-ekonometrik modellashtirish, asosiy tartib parametrlarini identifikatsiya qilish hamda ularning o‘zaro ta’sirlarini Monte-Karlo simulyatsiyasi orqali baholashning metodik yondashuvlari ishlab chiqildi.



1-rasm. Kichik biznes tizimining sinergetik arxitekturasi: tartib parametrlari (ξ_1, ξ_2, ξ_3), bo'ysunuvchi o'zgaruvchilar va ularning o'zaro bog'liqligi[6]

Dissertatsiyaning **"Jizzax viloyati kichik biznes tizimini statistik tahlil qilish va sinergetik-ekonometrik modellashtirish"** deb nomlangan ikkinchi bobida Jizzax viloyati kichik biznes tizimining empirik ma'lumotlar bazasi va tavsifiy statistik tahlili, Kichik biznes tizimining sinergetik-ekonometrik modelini ishlab chiqish va uning parametrlarini baholash hamda Jizzax viloyati kichik biznes tizimi uchun Monte-Karlo simulyatsiyasi asosida ekonometrik modelni baholash va barqarorlik tahlili tadqiq qilingan.

Empirik tahlil natijalari asosida Jizzax viloyati kichik biznes tizimining sinergetik-ekonometrik arxitekturasi shakllantirildi (2-rasm).

2-rasmda kichik biznes tizimining konseptual sinergetik tuzilmasi keltirilgan. Modelda YaIMdagi kichik biznes ulushi (ξ_1) boshqaruvchi va nisbatan barqaror tartib parametri sifatida, sanoatdagi kichik biznes ulushi (ξ_2) bifurkatsion va yuqori volatillikka ega parametr sifatida tanlab olindi. Ushbu parametrlarning latent xarakteri tizimdagi asosiy strukturaviy siljishlarni ifodalash imkonini beradi. Bo'ysunuvchi o'zgaruvchilar sifatida xizmatlar, kapital qo'yilmalar, tashqi savdo va chakana savdo ulushlari tanlandi. Nazorat parametri λ(t) iqtisodiy islohotlar intensivligi va makroiqtisodiy siyosat ta'sirini aks ettiradi. Modeldagi stoxastik komponent $\xi(t) \sim N(0, \Sigma)$ Monte-Karlo simulyatsiyasi orqali modellashtiriladigan tasodifiy tebranishlarni ifodalaydi.

Modelning strukturaviy mexanizmi uch turdagi bog'lanishlar orqali tavsiflanadi:

strukturaviy bog'lanish yo'li;

faktor yuklamalari asosidagi o'lchov bog'lanishi;

stoxastik korrelyatsion bog'lanishlar.

[6] Ilmiy izlanishlar asosida muallif ishlanmasi.



2-rasm. Jizzax viloyati kichik biznes tizimining sinergetik-ekonometrik konseptual modeli va tartib parametrlarining strukturaviy o'zaro ta'sir mexanizmi[7]

Model spetsifikatsiyasi. PCA natijalari asosida kichik biznes tizimi uchun sinergetik stoxastik differensial tenglamalar tizimi ishlab chiqildi:

$$d\xi_1 = \mu_1 (\xi_1 - \xi_1^*) dt + \alpha_{12}\xi_2 dt + \sigma_1 dW_1(t), \quad (1)$$

$$d\xi_2 = \mu_2 (\xi_2 - \xi_2^*) dt + \alpha_{21}\xi_1 dt + \lambda (\xi_1 - \xi_2) dt + \sigma_2 dW_2(t). \quad (2)$$

Bu yerda:

μ_I – qaytish tezligi (mean reversion) koeffitsientlari;

ξ_i^* – muvozanat parametrlari;

α_{ij} – o'zaro ta'sir koeffitsientlari;

λ – sinergetik nazorat parametri;

σ_i – stoxastik volatilitet parametrlari;

dWi – Wiener jarayonlari.

Dastlabki ikki o'lchamli model natijalari asosida tizimning kengaytirilgan uch o'lchamli sinergetik stoxastik modeli ishlab chiqildi. Unda xizmatlar sohasidagi kichik biznes ulushi (ξ_3) qo'shimcha tartib parametri sifatida kiritilib, tizimning

[7] Ilmiy izlanishlar asosida muallif ishlanmasi

strukturaviy dinamikasi yanada to‘liq tavsiflandi:

$$d\xi_1 = \mu_1(\xi_1 - \xi_1^*)\,dt + \alpha_{12}(\xi_2 - \xi_2^*)\,dt + \alpha_{13}(\xi_3 - \xi_3^*)\,dt + \sigma_1\,dW_1, \quad (3)$$

$$d\xi_2 = \mu_2(\xi_2 - \xi_2^*)\,dt + \alpha_{21}(\xi_1 - \xi_1^*)\,dt + \alpha_{23}(\xi_3 - \xi_3^*)\,dt + \sigma_2\,dW_2, \quad (4)$$

$$d\xi_3 = \mu_3(\xi_3 - \xi_3^*)\,dt + \alpha_{31}(\xi_1 - \xi_1^*)\,dt + \alpha_{32}(\xi_2 - \xi_2^*)\,dt + \sigma_3\,dW_3. \quad (5)$$

Modelning MLE/OLS yondashuvi bilan baholangan parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Uch o‘lchamli sinergetik SDE model parametrlarining ekonometrik baholash natijalari[8]

Parametr	Qiymat	S.E.	Izoh	Belgi
Ekvilibrium (fazoviy) qiymatlari				
ξ_1 (YaIM ulushi)	80,17	3,3	%	
ξ_2 (Sanoat ulushi)	49,98	12,5	%	
ξ_3 (Xizmatlar ulushi)	55,09	10,3	%	
Diagonalli moslashuv (relaxation) koeffitsientlari				
μ_1	+0,630	0,22	YaIM o‘z-o‘ziga	$\xi_1 \to \xi_1$
μ_2	−1,940	0,88	Sanoat o‘z-o‘ziga	$\xi_2 \to \xi_2$
μ_3	−0,183	0,14	Xizmatlar o‘z-o‘ziga	$\xi_3 \to \xi_3$
Krossovyy slaving koeffitsientlari				
α_{12}	−0,206	0,15	Sanoat → YaIM	
α_{13}	−0,059	0,08	Xizmat → YaIM	
α_{21}	+6,679	1,85	YaIM → Sanoat	Kuchli
α_{23}	−0,099	0,27	Xizmat → Sanoat	
α_{31}	+0,255	0,18	YaIM → Xizmat	
α_{32}	−0,124	0,12	Sanoat → Xizmat	
Stoxastik volatilitet (shovqin amplitudasi)				
σ_1	1,729	-	YaIM volatiliteti	
σ_2	5,438	-	Sanoat volatiliteti (eng katta)	
σ_3	7,190	-	Xizmat volatiliteti	
Jakobi matritsasining xos qiymatlari				
eig_1	−1,159	haqiqiy	barqaror	
eig_2	−0,303	haqiqiy	barqaror	
eig_3	−0,032	haqiqiy (eng sekin)	chegara	

[8] Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari

3-o‘lchamli sinergetik modelning kengaytirilgan spetsifikatsiyasi tizimdagi strukturaviy bog‘liqliklarni yanada aniqroq tavsiflash imkonini berdi. Baholash natijalariga ko‘ra, xizmatlar ulushining muvozanat qiymati $\xi_3 = 55{,}09$ bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yildagi amaldagi darajadan sezilarli past ekanligi aniqlandi. Ushbu holat xizmatlar sektorida uzoq muddatli pasayish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi.

3-rasm Jizzax viloyati kichik biznes tizimining ikki tartib parametri – ξ1 va ξ2 tekisligidagi evolyutsion trayektoriyasini ifodalaydi. Grafikdagi rangli nuqtalar tizimning 2010 – 2024-yillardagi holatlari va ular o‘rtasidagi dinamik o‘tishlarni aks ettiradi. 2010 – 2018-yillarda trayektoriya yuqori-o‘ng yo‘nalishda shakllanib, YaIMdagi va sanoatdagi kichik biznes ulushlarining birgalikda o‘sishi kuzatilgan hamda 2018-yilda tizim lokal maksimum holatga erishgan.

2019 – 2022-yillarda sanoatdagi kichik biznes ulushining pasayishi hisobiga trayektoriyada quyi yo‘nalishdagi siljish yuz bergan. 2023-yilda koordinata tekisligining past-chap qismiga keskin o‘tish tizimda bifurkatsion, ya’ni strukturaviy almashuv holati yuzaga kelganini ko‘rsatadi. 2024-yilda trayektoriya yangi muvozanat holatiga yaqinlashib, nisbatan barqarorlashish tendensiyasi qayd etilgan. Fazoviy tahlil natijalari kichik biznes tizimi dinamikasida strukturaviy siljishlar va bifurkatsion o‘tishlar mavjudligini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Modelning statistik adekvatligini tekshirish maqsadida diagnostik testlar majmuasi qo‘llanildi (2-jadval). Muqobil ekonometrik modellar bilan qiyosiy tahlillar sinergetik SDE modelining strukturaviy siljishlar va chiziqsiz dinamikani tavsiflashda yuqori analitik ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.



3-rasm. Jizzax viloyatida kichik biznes tizimi tartib parametrlarining fazoviy trayektoriyasi va bifurkatsion o‘tish dinamikasi[9]

[9] Ilmiy izlanishlar asosida muallif ishlanmasi

2-jadval

Jizzax viloyati kichik biznes tizimi sinergetik-ekonometrik modelining statistik adekvatlik va diagnostik test natijalari[10]

Test	Tekshirilayotgan xususiyat	Tenglama	Statistik qiymat	Xulosa
White	Geteroskedastiklik	I	F = 1,94; p = 0,38	H_0 qabul qilindi
		II	F = 2,12; p = 0,31	H_0 qabul qilindi
Breusch–Pagan	Geteroskedastiklik	I	BP = 1,82; p = 0,43	H_0 qabul qilindi
		II	BP = 2,04; p = 0,36	H_0 qabul qilindi
Durbin–Watson	Avtokorrelyatsiya	I	DW = 1,93	Muvofiq
		II	DW = 1,87	Muvofiq
Breusch–Godfrey LM	Yuqori tartibli avtokorrelyatsiya	I	LM = 1,42; p = 0,23	H_0 qabul qilindi
VIF	Multikollinearlik	Maksimal qiymat	2,14	< 5, muammo mavjud emas
Jarque–Bera	Normal taqsimot	I qoldiq	JB = 1,34; p = 0,51	H_0 qabul qilindi
		II qoldiq	JB = 3,82; p = 0,15)	H_0 qabul qilindi
Ramsey RESET	Spetsifikatsiya xatosi	Umumiy model	F = 0,98; p = 0,38	Model to‘g‘ri spetsifikatsiyalangan
BDS	Chiziqsiz struktura	I qoldiq	2,14; p = 0,032	Chiziqsiz dinamika mavjud
CUSUM	Koeffitsientlar barqarorligi	Maksimal qiymat	0,78	Kritik chegara ichida

Ikkinchi bosqichda baholangan parametrlar asosida stoxastik jarayon trayektoriyalarini generatsiya qilish maqsadida Euler–Maruyama sonli integratsiya sxemasi qo‘llanildi. Ushbu usul stoxastik differensial tenglamalarni diskret vaqt oralig‘ida yechish imkonini berib, tizimning vaqt bo‘yicha evolyutsiyasini modellashtirishga xizmat qiladi. Simulyatsiya jarayonida $N = 10\,000$ ta takrorlash asosida trayektoriyalar generatsiya qilindi. Har bir iteratsiyada Wiener jarayonining tasodifiy o‘zgarishlari $\Delta W_t \sim N(0, \Delta_t)$ taqsimotga muvofiq mustaqil ravishda shakllantirildi. Tasodifiy sonlar generatori sifatida Mersenne Twister algoritmi (numpy standart konfiguratsiyasi, $seed = 42$) qo‘llanilib, natijalarning takrorlanish xususiyati (reproducibility) ta’minlandi.

4-rasmdagi blok-sxemada tadqiqotda qo‘llanilgan Monte-Karlo simulyatsiya algoritmining izchil bosqichlari aks ettirilgan. Xususan, kichik hajmdagi empirik ma’lumotlar bazasi ($T = 16$) asosida model parametrlarini baholash, qoldiqlar taqsimotini aniqlash va bootstrap yondashuvi orqali stoxastik komponentlarni generatsiya qilish bosqichlari ketma-ket amalga oshiriladi. Simulyatsiya jarayonida $N = 10\,000$ ta virtual trayektoriya hosil qilinib, har bir iteratsiyada Euler–Maruyama sxemasi asosida yangi qiymatlar generatsiya qilinadi. Tizimning

[10] Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari

ehtimolli rivojlanish trayektoriyalari shakllantirilib, ular asosida empirik kvantillar, xususan, risk ko‘rsatkichlari - VaR va CVaR baholanadi. Ushbu yondashuv kichik tanlanma sharoitida ham model parametrlarining ishonchlilik oralig‘ini aniqlash va tizim barqarorligini baholash imkonini beradi.



4-rasm. Sinergetik SDE modeli asosida Monte-Karlo simulyatsiya algoritmining bosqichma-bosqich blok-sxemasi[11]

Hisoblash natijalariga ko‘ra, 2010 – 2018-yillar oralig‘ida Jizzax viloyatda tizim nisbatan barqaror holatda bo‘lib, entropiya qiymati past darajada (o‘rtacha ≈ 2,34) saqlanib qolgan. Biroq 2019-yildan boshlab entropiya darajasi izchil o‘sib, 2024-yilda ≈ 3,18 ga yetgan. Ushbu o‘sish tizimda tartibsizlik va noaniqlik darajasining sezilarli oshganligini bildiradi.

Odatda, Shannon entropiyasi quyidagi formula asosida hisoblandi:

[11] Ilmiy izlanishlar asosida muallif ishlanmasi

$$H = \sum_{ij} p_{ij} \ln p_{ij}$$

bu yerda, – $p_i$empirik taqsimot ehtimolliklari (bloklar ulushi)ni ifodalaydi. Entropiyaning ortishi tizimda strukturaviy o‘zgarishlar kuchayganligini, ya’ni iqtisodiy faoliyat tarmoqlari o‘rtasidagi taqsimotning murakkablashganligini anglatadi.

Keyingi bosqichda tizim dinamikasida yuzaga kelgan strukturaviy o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida Chow strukturaviy uzilish testi qo‘llanildi. Ushbu test ikki davr bo‘yicha regressiya koeffitsiyentlarining tengligi haqidagi gipotezani tekshiradi. Chow testi statistikasi quyidagi ko‘rinishda hisoblanadi:

$$F = \frac{(SSR_R - SSR_{U1} - SSR_{U2})/k}{(SSR_{U1} + SSR_{U2})/(n_1 + n_2 - 2k)},$$

bu yerda, – SSR_Rcheklangan (butun davr bo‘yicha) model qoldiqlar yig‘indisi;

SSR_{u1}, – SSR_{u2}ikkita alohida davr uchun model qoldiqlari;

– $k$parametrlar soni.

Chow testiga ko‘ra, 2018-yildagi yuqori o‘sish nuqtasi va 2023-yildagi pasayish davrida model parametrlarida sezilarli strukturaviy o‘zgarishlar yuz bergan ($p < 0{,}05$). Test natija tizim dinamikasida bifurkatsiya holatlari mavjudligini va iqtisodiy jarayonlarning yangi rejimga o‘tganligini empirik jihatdan tasdiqlaydi (3-jadval).

O‘tkazilgan Chow testi natijalari shuni ko‘rsatadiki, YaIMdagi kichik biznes ulushi bo‘yicha F-statistika 3,336 va p-qiymat 0,070 ni tashkil etib, 10% ahamiyat darajasida strukturaviy uzilish mavjudligini ko‘rsatadi. Bu natija 2018-yilda tizim dinamikasida muhim burilish nuqtasi yuzaga kelganligini bildiradi. Biroq sanoat ulushi bo‘yicha natijalar statistik jihatdan ahamiyatli emas (p = 0,685). Ya’ni, ushbu ko‘rsatkichda strukturaviy uzilish aniqlanmadi. Bu holat sanoat sektorida o‘zgarishlar mavjud bo‘lsa ham, ular keskin rejim almashinuvi darajasida emasligini anglatadi.

3-jadval

Jizzax viloyati kichik biznes ko‘rsatkichlari bo‘yicha Chow strukturaviy uzilish testi natijalari (2018-yil break-point)[12]

O‘zgaruvchi	F -statistika	p-qiymat	Xulosa
YaIM ulushi	3,336	0,070	10% darajada uzilish (chegarada)
Sanoat ulushi	0,511	0,685	Struktur uzilish rad etilmadi

[12] Ilmiy izlanishlar asosida muallif hisob natijalari.

Navbatdagi bosqichda tizimdagi uzoq muddatli muvozanat munosabatlarini aniqlash maqsadida kointegratsiya nazariyasiga asoslangan yondashuv qo‘llanildi[13]. Kichik tanlanmalar uchun Pesaran va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan ARDL Bounds Testing yondashuvi muqobil usul sifatida taklif etilgan.

4-jadval

Jizzax viloyati kichik biznes ko‘rsatkichlari uchun Johansen kointegratsiya testi natijalari[14]

Gipoteza (H0)	Trace stat	5% kritik	Max-eigen	Xulosa
r = 0	38,47	29,80	24,16	Rad etiladi
$r \leq 1$	14,31	15,49	11,24	Qabul
$r \leq 2$	3,07	3,84	3,07	Qabul

Izoh: $\xi_1 = y_{YaIM}$, $\xi_2 = y_{Sa}$, $\xi_3 = y_{Xiz}$; Natijalarga ko‘ra, tizimda bitta kointegratsion vektor mavjud (r = 1).

Johansen testi natijalariga ko‘ra, nol gipoteza $H_0 : r = 0$ rad etildi (Trace statistikasi kritik qiymatdan yuqori). Bu tizimda kamida bitta kointegratsion bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, $H_0 : r \leq 1$ gipotezasi qabul qilinib, tizimda aynan bitta kointegratsiya vektori mavjudligi aniqlangan. Bu natija YaIM ulushi, sanoat ulushi va xizmatlar ulushi o‘rtasida uzoq muddatli muvozanat munosabati mavjudligini bildiradi. Ya’ni, qisqa muddatli tebranishlarga qaramasdan, ushbu ko‘rsatkichlar vaqt o‘tishi bilan muvozanat holatiga intiladi (4-jadval).

Johansen testi natijalari asosida Vector Error Correction Model (VECM) spetsifikatsiyasi qurildi. Ushbu model qisqa muddatli dinamikani uzoq muddatli muvozanat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Baholangan kointegratsion tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y_{\{YaIM,t\}} = 0{,}68 + 0{,}42 \cdot Y_{\{sa,t\}} + 0{,}22 \cdot Y_{\{xiz,t\}}$$

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, YaIMdagi kichik biznes ulushi sanoat ulushi bilan 0,42 va xizmatlar ulushi bilan 0,22 koeffitsiyent orqali ijobiy bog‘liq. Bu nitijalar sanoat sektorining YaIMga ta’siri kuchliroq ekanligini bildiradi.

